

## Humans sodiqlik Dasturi doirasida o'tkaziladigan Aksiyalarning tavsifi

Quyida keltirilgan Akisya Tavsiflari (keying o'rinda — Tavsiflar) Humans sodiqlik Dasturining ajralmas qismi hamda "HUMANS" MChJ tomonidan aniqlanmagan shaxslarga taqdim etiladi.

### "Aloqa xizmatlaridan foydalanish evaziga bonus" Aksiyasining tavsifi

#### 1. Aksiya haqida ma'lumot

1.1. Mazkur Tavsiflarda bosh harflardan boshlanadigan so'zlar atamalar hisoblanadi. Atamalar ma'nosi [www.humans.uz](http://www.humans.uz) saytida joylashtirilgan HUMANS aloqa xizmatlarini taqdim etish Shartlarida va Humans Sodiqlik Dasturi Qoidalarida keltirilgan (agar ushbu Tavsiflarda boshqasi belgilanmagan bo'lsa).

1.2. "Aloqa xizmatlaridan foydalanish evaziga bonus" Aksiyasi Ishtirokchilariga qo'shimcha talablar — Aksiya ishtirokchilari – Humans aloqa xizmatlarini ko'rsatish Shartlarini qabul qilgan holda Operator bilan Aloqa xizmatlarini ko'rsatish Shartnomasini tuzgan bo'lishi hamda Tavsiflarning 2-bo'limida sanab o'tilgan boshqa harakatlarni amalga oshirishi kerak.

1.3. Hisobga olinadigan summa — Xizmat Ishtirokchisi tomonidan ulangan xizmatlar va/ yoki Qo'shimcha xizmatlar uchun to'lovlar narxi. "Alohida toifadan raqam tanlash" va "Alohida toifadan raqam taqdim etish" xizmatlarining narxlarini to'lash, hamda roumingda ko'rsatilgan xizmatlar narxini to'lash, shuningdek Tarif paketlarida ulanadigan Tarif paketlari va Opsiyalaridan tashqari xizmatlar narxi bundan mustasno..

1.4. Aksiyaning o'tkazilish muddati: 2021.05.16-y. dan 2021.08.16-y. gacha.

#### 2. Aksiya shartlari

2.1. O'tgan sutka davomida Hisob-varag'idan summa yechilgan ishtirokchilarga har kuni Yechilgan summadan 10% (**o'n foiz**) Bonus hisobga tushiriladi. Bonus hisobdan Summa yechilgan sanadan keyingi kuni sutkada bir marta hisobga tushiriladi.

2.2. "Alohida toifadan raqam tanlash" yoki "Alohida toifadan raqam taqdim etish" xizmatlariga to'lagan, shu jumladan xizmat Ishtirokchisining Shaxsiy hisobidan muddatli to'langan xizmatlar narxidan 5% (**besh foiz**) miqdorda Bonus beriladi. Bonus sutkasiga bir marta, tegishli xizmat to'langan sanadan keyingi kuni beriladi.

2.3. So'nggi sutka ichida Humans'ning har qanday xizmatlari (kiruvchi yoki chiquvchi qo'ng'iroqlar, SMS, internet-trafik)dan foydalangan Ishtirokchilar 100 bonus UZS miqdorida Bonus olishadi. Bonus sutkasiga bir marta keyingi kuni oldingi kun davomida Xizmat Ishtirokchisi tomonidan foydalanilgan tahlil asosida hisobga tushiriladi.

2.4. Aloqa xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha Humans bilan Shartnoma tuzgan Ishtirokchilar 1000 bonus UZS hajmda bir martalik Bonus oladilar. Bonus Shartnoma tuzilgan kunning ertasiga hisobga tushiriladi.

**2.5. Ishtirokchi Aksiya doirasida olishi mumkin bo'lgan Bonus miqdori chegaralanmagan.**